

# INSON va qonun

SEN BILAN  
FAXRLANAMIZ,  
*Oiyora!*



*Oiyora!*



Hozirda butun O'zbekiston g'alaba nashidasi, faxr va iftixor og'ushida. Parijda o'tayotgan yozgi Olimpiya o'yinlarining dzyudo yo'nali shida 52 kilogrammgacha vazn toifasida barcha raqiblarini yengib, olimpiya terma jamoamizga birinchi oltin medalni keltirgan Diyora Keldiyorova Olimpiya o'yinlari championligini qo'lg'a kiritdi. U dzyudo bo'yicha o'zbekistonlik ilk Olimpiya championiga aylandi. Diyora o'zbekning qudratini butun dunyoga ko'z-ko'z qildi.

E'tiborli, O'zbekiston tarixida yozgi Olimpiya o'yinlarida ayollar o'rta-sida champion bo'lgan sportchi qizimiz sara-lash bosqichida to'rt marta jahon championi, 5 yildan buyon dzyudo bo'yicha jahon turnirlarida kuragi yerga teg-magan yaponiyalik Uta Abeni mag'lub etdi.



## 2 QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

### 1-AVGUSTDAN NIMALAR O'ZGARADI?



### OBYEKTLAR ZILZILABARDOSHЛИGIDAN KELIB CHIQIB QURILADI

Qonunchilikka ko'ra, xavflik omili III-IV toifa bo'lgan obyektlarni hududning zilzilar kuchini ko'rsatib beruvchi mintaqaviy akserogrammalar bazalaridan kelib chiqib loyihalash va qurish tartibi joriy etiladi.

### XORIJY MUTAXASSISLAR JALB QILINADI

Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot institutiga quyidagi huquqlar beriladi:

- raqamli kriminalistika bo'yicha sud ekspertizalari va tadqiqotlarni o'tkazish;
- jinoyatlarning raqamli izlarini aniqlash, olib qo'yish, saqlash va tadqiq qilish hamda o'rganilgan ma'lumotlar bo'yicha xulosalar tayyorlash;
- raqamli kriminalistika sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarni zamonaviy raqamli kriminalistika ekspertiza turlari bo'yicha masofaviy va an'anaviy tarzda o'qitish;
- raqamli kriminalistika faoliyatini amalga oshirish hamda maxsus kriminalistika laboratoriyalari ishini samarali tashkil etish uchun shartnoma asosida malakali mahalliy va xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari doirasida hamda texnik vosita va butlovchi ehtiyoj qism sifatida foydalanish uchun Ichki ishlari vazirligida yuritiladigan raqamli axborot tashuvchi qurilmalar (mobil telefon, smartfon, planshet, kompyuter texnikasi, videoregistrator, qattiq disk, flesh xotira va tashqi jamlagichlar) kolleksiyasidan foydalanish;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish uchun zarur bo'lgan statistik va boshqa axborotni vazirliklar va idoralardan bepul asosda so'rab olish.

### YER UCHASTKALARI AUKSIONGA CHIQARILADI

Joylardagi hokimliklar joriy yil yakuniga qadar Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hamda Kadastr agentligi bilan birgalikda master-rejalarga muvofiq zamonaviy xizmat ko'rsatish majmulari va servis obyektlarini, jumladan joylashtirish vositalari, turar joylar, savdo-ko'ngilochar markazlarini tashkil qilish uchun master-reja hududidagi yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqaradi.

### TIBBIYOT CHIQINDILARI LOYIHA KOMPANIYASIGA TOPSHIRILADI

Qonunchilikka muvofiq:

- tibbiyot chiqindilaridan muqobil issiqlik energiyasini ishlab chiqarish uchun barcha turdag'i tibbiyot muassasalarida hosil bo'ladigan tibbiyot chiqindilari to'liq hajmda Loyiha kompaniyasiga topshiriladi;
- Loyiha kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan issiqlik energiyasi belgilangan tartibda tasdiqlangan tariflarda tibbiyot muassasalari tomonidan sotib olinishi ta'minlanadi.

Bunda issiqlik energiyasi boshqa shaxslarga ham belgilangan tartibda yetkazib berilishi mumkin.

### TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLOVCHI OTMLARDA AMALIYOT BAZALARI TASHKIL ETILADI

Turizm sohasida kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lif muassasalari uchun yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan amaliyot bazalari (turoperator, turagent, gid-tarjimon, mehmonxona va turizm transporti xizmatlarini ko'rsatish obyektlari) belgilangan tartibda tashkil etishga ruxsat beriladi.

### KLASTER TA'SISCHILARINING SHAXSIY KAFILLIGI RASMIYLASHTIRILADI

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi kredit resurslari hisobidan tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar bo'yicha klasterlar ta'sischilarining shaxsiy kafilligi qo'shimcha ravishda rasmiylashtiriladi.

Ma'ruf LUKCHAYEV,  
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi

### HUQUQIY DAYJEST

#### FAOL SHAXSLAR MUKOFOTLANADI

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 5-iyunda imzolangan "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, davlat organlari va tashkilotlari xodimlari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi holatlari bo'yicha tegishli dalillarni ilova qilgan holda ularni aniqlashda faol yordam bergan shaxslarga undirilgan jarimaning 50 foizi miqdorida mukofot puli beriladi.



#### SANATORIYGA BEPUL YO'LLANMA

Mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan fuqarolarning O'zbekistonda ular bilan birga istiqomat qiluvchi pensiya yoshiga yetgan yoki I va II guruh nogironligi bo'lgan oila a'zolariga kasaba uyushmalari tizimidagi sanatori va profilaktik davolanish muassasalariga bir martalik bepul yo'llanma beriladi. Mazkur imtiyoz Prezidentimizning 2022-yil 1-martdag'i "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida o'z aksini topgan.

#### "IJTIMOIY KARTA" AXBOROT TIZIMI JORIY ETILADI

Joriy yilning 18-iyul kuni Prezidentimizning "Aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tartibini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ayni qaror asosida "Ijtimoiy karta" axborot tizimi joriy etilib, 2024-yil 1-dekabrdan yangidan tayinlanadigan ijtimoiy to'lovlar, xizmatlar va imtiyozlarni, 2025-yil 1-apreldan esa bosqichma-bosqich shaxsnинг nogironligini, talaba, o'quvchi, urush qatnashchisi yoki urush qatnashchisiga tenglashtirilgan shaxs holatini tasdiqlash singari qo'llab-quvvatlash choralarini ana shu tizim orqali taqdim etiladi.

#### "ZANGIOTA-2" SHIFOXONASI FAOLIYATI TUGATILADI

Hukumatning 2024-yil 24-iyul kuni qabul qilingan "Toshkent shahar bolalar ko'p tarmoqli shifoxonasini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga binoan, "Zangiota-2" shifoxonasi faoliyati tugatilib, uning o'rnda davlat muassasasi shaklidagi 500 o'ringa mo'ljalangan Toshkent shahar bolalar ko'p tarmoqli shifoxonasini tashkil etiladi.

Mazkur tibbiyot muassasasi 18 yoshgacha bo'lgan bolalarda zarur tibbiy tekshiruvlarni o'tkazish, ularga yuqori malakali tibbiy-konsultativ hamda ixtisoslashtirilgan statsionar yordamini ko'rsatish, tuman tibbiyot birlashmalariga amaliy-metodik yordam berish, Toshkent shahar tibbiyot muassasalari amaliyotiga zamonaviy tibbiyot texnologiyalari va boshqaruv usullarini joriy etishda ko'maklashish hamda tibbiyot xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ishtirok etish kabi vazifalarni bajaradi.



#### ZARGARLIK YANADA RIVOJLANADI

Prezidentimizning 2024-yil 23-iyulda qabul qilingan "Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini yanada rivojlantrish va ularning raqobatbardoshligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, 2024–2026-yillarda Buxoro va Namangan viloyatlarida bittadan hamda Toshkent shahrida ikkita zargarlik markazlari tashkil etiladi.

Shuningdek, zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilar "Olmaliq KMK" AJ va "Navoiy KMK" AJ tomonidan uzlusiz ravishda zarur miqdordagi qimmatbaho metallar bilan ta'minlanadi. 2024-yil 1-novabrda esa chet elda ishlab chiqarilgan zargarlik buyumlarini, basharti ular bo'yicha bojxona to'lovlari amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjalarni bo'limasa, sotuvga qo'yish va chakana savdoda realizatsiya qilish man etiladi.

Bundan tashqari, 2025-yil 1-yanvargacha Toshkent shahri, Buxoro, Namangan, Samarqand va Xorazm viloyatlarida zargarlik buyumlarining asilligini tezkor tekshirish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi shoxobchalar faoliyati yo'iga qo'yiladi.



#### SUV QACHON TO'XTATIB QO'YILADI?

Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 19-martdagi 82-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida suvdan foydalanish va SUV iste'moli tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan, ichimlik suvidan boshqa maqsadlarda (mashina yuvish, tomorqa sug'orish, hovliga SUV sepish) foydalanish yoki oqilonqa foydalanmaslik (mevalarni muzlatish uchun ochib qo'yish) suvni to'xtatib qo'yish uchun asos hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur qoidalarni buzish, ya'ni suvdan xo'jasizlarcha foydalanish fuqarolarga BHMning 1 baravaridan (340 ming so'm) 3 baravarigacha (1 million 20 ming so'm), mansabdar shaxslarga esa – 5 baravaridan (1 million 700 ming so'm) 10 baravarigacha (3 million 400 ming so'm) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

@huquqiyaxborot

# O'ZBEKISTON SAYLOV QONUNCHILIGI YUKSAK XALQARO TALABLAR VA MEZONLARGA JAVOB BERADI

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining joriy yil 26-iyulda majlisida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlarini joriy yilning 27-oktabrida o'tkazilishi e'lon qilindi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar saylov jarayonining demokratik asoslarini mustahkamlashga, saylovlarda ham saylovchilar korpusini, ham siyosiy partiyalardan nomzodlar to'laqonli ishtirok etishlari uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoitlar va imkoniyatlarni yaratishga qaratildi.

Xalqaro saylov standartlari va talablari asosidagi O'zbekiston saylov qonunchiligini shakllantirish, uni demokratlashtirish orqali aholining siyosiy xohish-irodasini ro'yobga chiqarishni ta'minlash xalq hokimiyatiga va jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruhlar ning manfaatlarini hisobga olishga asoslangan davlat huquqiy siyosating muhim tarkibiy elementlaridan biri hisoblanadi. Ayni shu omil ta'sirida saylov huquqi ham mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar jarayoni bilan uyg'unlikda rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining saylov huquqi real tarixiy sharoitlarni, siyosiy tizimning rivojlanish darajasini, aholi va saylov jarayoni ishtirokchilarining ijtimoiy-siyosiy faolligini, shuningdek saylovlarining o'tkazilishini kuzatishda ishtirok etuvchi YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi tavsiyalarini hisobga olgan holda doimiy ravishda va izchil takomillashtirib kelinmoqda.

Endilikda yangilangan Konstitutiyamizning XXII bobi kengaytirilib, saylov tizimining asosiy prinsiplari va faoliyatining tartibini batafsil belgilab beruvchi ikkita muddani (128 va 129-moddalar) o'z ichiga oladi. Biroq Asosiy qonunimizda saylov tizimining o'ziga xos modeli belgilanmagan bo'lib, bunday masalalar O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksida o'z ifodasini topdi.

Shunga muvofiq, 2023-yil 18-dekabrda Saylov kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bu islohotlar saylov tizimining yangi modeli va mohiyatini tubdan o'zgartirdi. Mazkur hujjatda, birinchi navbatda, Qonunchilik palatasiga saylovni aralash, ya'ni majoritar-proporsional saylov tizimi asosida o'tkazishning yangi tartibi belgilandi.

Unga ko'ra, Oliy Majlisning quyi pa-

latasiga saylovlarda 75 ta bir mandatli saylov okruglari tashkil etiladi. Ularning har biridan deputat majoritar tizim (aniq nomzodlar uchun ovoz berish orqali), shuningdek proporsional, ya'ni yagona okrug bo'yicha saylanadi. Bunda ovoz berish partiya ro'yxatlari bo'yicha (u yoki bu partiya uchun) o'tkaziladi va 75 ta deputatlik o'rni partiya uchun berilgan ovozlar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Qayd etish joizki, saylov tizimining aralash modeliga ko'ra, Oliy Majlis quyi palatasi a'zolarining yarmi majoritar tizim asosida, ya'ni deputatlik saylovlarida ishtirok etgan nomzod ko'rsatilganidan keyin shakllantiriladi. Bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarining boshqa nomzodlariga nisbatan eng ko'p ovozini oltan nomzod majoritar tizim bo'yicha saylangan hisoblanadi. Partiya ro'yxatiga kiritilgan nomzodlar proporsional tizim bo'yicha saylangan hisoblanadi. Bunda deputatlar o'rtaida mandatlarni taqsimlash partiya ro'yxatiga kiritilgan deputatlikka nomzodlar tartibiga muvofiq amalga oshiriladi.

Shuningdek, qonunchiligidan yangilik bo'yicha, agar saylovda qatnashgan saylovchilarining yetti va undan ortiq foizini bitta siyosiy partiya oltan bo'lsa, deputatlik o'rnlari saylovda eng ko'p ovoz oltan ikkinchi siyosiy partiya o'rtaida taqsimlanadi. Bundan tashqari, o'zgartishlarga ko'ra, Qonunchilik palatasining kamida besh nafar deputati fraksiya tuzish huquqiga ega (ilgari ularning soni to'qqiz nafar edi).

Xalq deputatlari Kengashiga saylov o'tkazilayotganda viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari tuziladi. Markaziy saylov komissiyasi (MSK) a'zolari soni ham 15 nafardan 9 nafarga qisqartirildi. Shu bilan birga, MSKning raisi O'zbekiston Prezidentining

taklifiga binoan saylanishi, uning ushbu lavozimga ketma-ket ikki muddatdan ortiq saylanishi mumkin emasligi va MSK a'zolaridan kamida bittasi Qoraqalpog'iston Respublikasi vakili bo'lishi kerakligi belgilangan. Hokimiyat vakillik organlarida ayollarimizning siyosiy faolligini yanada oshirish maqsadida, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko'rsatilayotganda, ayollar sonining eng kam miqdorini nomzodlar umumiy sonining o'ttiz foizidan qirq foizga oshirish nazarda tutilgan.

O'zbekiston saylov qonunchiligidan yangilanishi jamiyat va davlat ehtiyojlariga javob beradi. Shubhasiz, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovda aralash saylov tizimining joriy etilishi mamlakatimizdagi siyosiy partiyalar raqobatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Saylovlar hokimiyat vakillik organlarini shakllantirishning demokratik usulidir. Demokratik saylovlarining muhim xususiyatlaridan biri saylangan lavozimlarga muqobil nomzodlarning mavjudligidir. Aynan siyosiy partiyalar o'z nomzodlarini ko'rsatish, bir-biri bilan raqobatlashish orqali saylovchiga haqiqiy tanlov imkoniyatini yaratib beradi. Saylovlar davlat organlarini qonuniylashtiradi. Ya'ni, ular faoliyatini uchun huquqiy asos yaratadi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizning saylov tizimi zamonaqiy xalqaro saylov standartlariga asoslangan bo'lib, undagi tegishli mezon va talablar belgilab berilgan hamda unda ilg'or xorijiy tajriba ham hisobga olingan. Yangi saylov qonunchiligi demokratik yangilanishlarni amalga oshirish vositalaridan biri bo'lib, ochiq va oshkora saylovlarining ishonchli mexanizmiga aylanishi shubhasiz.

Milliy saylov tizimida rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasi va milliy an'analarining uyg'unlashuviga xalq o'z xohish-irodasini erkin va

ochiq ifoda etishini ta'minlamoqda. Qonunchiligidagi yangiliklar fuqarolarning saylov kampaniyasi davridagi imkoniyatlar saylov huquqlarining adolatlilik, oshkoraliq va yana oshkoraliq prinsiplari asosida amalga oshirilishini ta'minlashga, saylovchilarining saylovda erkin ishtirok etishi, siyosiy partiyalar va ularning nomzodlariga keng va teng huquqliligi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

Shuningdek, saylovni qonun talabari asosida tashkil etish va o'tkazishni ta'minlovchi mustaqil saylov komissiyalari tizimi ham milliy saylov tizimining eng muhim xususiyati hisoblanadi. Bundan tashqari, mamlakatimiz tarixida ilk bor barcha viloyatlar va Toshkent shahrida tegishli hududda xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashiga saylovni tashkil etuvchi hududiy saylov komissiyalari tashkil etilmoqda.

Shunday qilib, saylov tizimining o'zgarishi saylovni tashkil etish va o'tkazish tartibining takomillashuviga olib keldi. Bu jarayon ko'ppartiyavilidik tizimining vujudga kelishi, siyosiy partiyalarining nufuzi oshishi bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, siyosiy partiyalarining roli va mas'uliyatini kuchaytirish, saylov komissiyalarining mustaqilligini ta'minlash, saylov ustidan jamoatchilik nazoratining real mexanizmini joriy etish uchun sharoitlar yaratildi.

Saylov qonunchiligidagi yangiliklar, birinchidan, siyosiy partiyalarining saylov jarayonlaridagi roli va mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi, ikkinchidan, vakillik hokimiyati organlarini shakllantirishda siyosiy partiyalarining faol ishtirok etishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratib beradi.

**Omonulla MUHAMMADJONOV,  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
professori**

## 4 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA

Davlatimiz rahbarining “Ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to’g’risida”gi farmoniga ko’ra, Namangan viloyat adliya boshqarmasi, viloyat FHDY arxivi hamda hamkor tashkilotlar bilan birgalikda Uychi tumani-dagi “Madaniyat markazi”da sayyor qabul o’tkazildi.

## ADLIYA KUNI



Tadborda 1 ming 35 nafar fuqaro ishtirok etib, shundan 729 nafarining murojaati ijobji hal qilindi. Shuningdek, 500 nafardan ortiq fuqaroga huquqiy tushuntirishlar berildi. Pensiya jamg’armasi hamda ijtimoiy himoya bo’limi tomonidan 101 ta holatda fuqarolarning yoshga doir pensiya, boquchisini yo’qtonganlik nafaqasi, moddiy yordam, kam ta’minlangan oilalar uchun bola puli olishdagi hujjatlardagi noaniqliklar joyida bartaraf etildi.

Tuman adliya bo’limi tomonidan 12 ta murojaat hal etilgan bo’lsa, 20 ta murojaat bo’lim ish yurutuviga olindi. Viloyat FHDY arxivi tomonidan 717 ta holatda fuqarolarning shaxsga doir bo’lgan ma’lumotlari tug’ilish, nikoh, o’lim, nikohdan ajralganlik, familiya, ism o’zgartirish, yolg’iz ona, otalikni belgilash dalolatnomaga yozuvlaridagi noaniqliklar, kamchiliklar bartaraf etildi.

Tadbir davomida tumandagi “Beruniy” va “Hurriyat” mahallalarida uyma-uy yurib, aholining murojaatlarini o’rganish davomida 47 ta xonodon fuqarolarning hujjatlarda bir qator xato va noaniqliklar aniqlandi. Jumladan, fuqaro G. Xolmatova raqamlashtirish tizimida ikki nafar vafot etgan farzandining o’limi to’g’risidagi belgi qo’yilmagan, arxiv baza tizimida vafot etgan farzandlari tirik turganligi natijasida kadastr hujjatlarini uchinchi farzandining nomiga o’tkaza olman. Bu muammo joyida bartaraf etildi.

Shuningdek, moddiy yordam olishda qiy-nalayotgan fuqaro H. Nishanovning oila tarkibini raqamlashtirish tizimi orqali tekshirish jarayonida kiritilmagan nikoh dalolatnomaga yozuvi elektron bazaga kiritildi va turmush o’rtog’i vafot etgani sababli, nikoh tugatilgani belgisi qo’yildi. Ijtimoiy himoya bo’limiga murojaat qilgan, biroq, arizasi rad etilgan fuqaro S. Dedamirzayevning oila tarkibi tekshirilganda, u ikki marta qonuniy nikohdan o’tgan bo’lib, birinchi nikohida ajrim guvohnomasi mavjud bo’lsa-da, dalolatnomaga yozuviga nikoh bekor bo’lganlik belgisi qo’yilmagan. FHDY arxiv bazasidagi dalolatnomaga yozuviga birinchi nikohdan ajralganlik belgisi qo’yilib, ijtimoiy himoya bo’limiga yo’naltirildi.

Feruza MURODOVA,  
Namangan viloyat adliya boshqarmasi  
FHDY arxivi mudiri


## 40 YILLIK MUAMMO YECHIM TOPDI

Adliya idoralari xodimlarining uyma-uy yurgan holda aholining huquqiy muammolarini manzilli tarzda o’rganishi davom etmoqda.

Xususan, Kattaqo’rg’on shahar adliya bo’limi FHDY bo’limi tomonidan “Yermachit” mahallasida yashovchi fuqaro N. Mo’minovning 1980-yilda tug’ilgan va o’sha yili vafot etgan farzandining o’limi qayd etilmagani aniqlandi. Mazkur muammo shu joyning o’zida ro’yxatga olinib, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo’limi tomonidan sudga da’vo arizasi kiritildi.

Shuningdek, bo’lim tomonidan “Zarifobod” mahallasida uyma-uy yurish davomida mazkur hududda yashovchi fuqaro H. Qabulovanning 2000-yil ikki yoshida vafot etgan farzandining o’limi ham qayd etilmagani ma’lum bo’ldi. Ushbu masala ham FHDY bo’limi aralashuvi bilan huquqiy yechim topdi.

Feruza KAMALOVA,  
Kattaqo’rg’on shahar adliya bo’limi FHDY bo’limi mudiri



## “KREDIT TARIXI” TO’G’RISIDAGI MA’LUMOTNOMA KERAKMI?



Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-noyabrdagi “Davlat xizmatlarini ko’rsatishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 612-tonli qarorida jismoniy va yuridik shaxslarga ma’lumotnomalar berish bo’yicha davlat xizmatlarini ko’rsatishning yagona ma’mu-

riy reglamenti 25-ilovasida “kredit tarixi” to’g’risida ma’lumotnomada berish tartibi ko’rsatilgan.

Bu xizmatni jismoniy shaxslar olishi mumkin. “Kredit byurolari” bunga vakolatli organ “hisoblanadi. Yuborilgan arizada shaxsga oid quyidagi ma’lumotlar ko’rsatilishi lozim: familiyasi, ismi va otasining ismi (o’zgargan bo’lsa, bu haqda ma’lumotlar ko’rsatiladi), pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi ma’lumotlari (JSHSHIR ma’lumotlari), elektron manzili (mavjud bo’lsa) va telefon raqami, doimiy ro’yxatdan o’tgan manzili.

Bir yil ichida birinchi marta xizmatdan foydalanish – bepul, keyingilari uchun – BHMning 5 foizi miqdorida to’lov to’lanadi. Davlat xizmatini ko’rsatish muddati real vaqt rejimida.

Shirin ZAKIRYAYEVA,  
Samarqand shahar adliya bo’limi davlat xizmatlari  
markazi bosh mutaxassisasi

## BUYRUQ BILAN TANISHTIRILMAGAN XODIMNING INTIZOMIY JAZOSI G’AYRIQONUNIY HISOBLANADI

Qoraqalpog’iston Respublikasi Adliya vazirligiga fuqaro D.Sh. murojaat yo’llab, “Toza hudud” davlat unitar korxonasining Beruniy tumani filialida ishlayotganini, 2024-yil 15-yanvardan 10-fevralga qadar olyi ta’lim muassasasida sirtqi ta’lim shaklida o’qiganligi va ushbu davr uchun ish haqi to’lanmagani, o’ziga nisbatan “hayfsan” intizomiy jazo chorasi qonun-qoidalarga xilof ravishda qo’llanilganidan noroziligini bildirgan.

O’rganish davomida D.Sh. Qoraqalpog’iston Respublikasi Qishloq xo’jaligi va agrotexnologiyalar institutining sirtqi ta’lim shakliga 1-kursga qabul qilinganligi munosabati bilan 2024-yili 8-yanvarda chaqiruv xati bilan o’qishga chaqirilgani ma’lum bo’ldi. Biroq ushbu chaqiruv xatiga asosan “Toza hudud” MUK tomonidan D.Sh.ga o’qishga yuborish haqida buyruq chiqarilmagan va o’rtacha oylik ish haqi to’lanmagan.

Mehnat kodeksining 383-moddasida ish beruvchi mehnat shartnomasi bo’yicha ishdan ajralman gan holda ta’lim tashkilotlarida o’qitilayotgan qayta tayyorlashdan yoki malaka oshirishdan o’tayotgan, shuningdek ishlab chiqarish ta’limini o’tayotgan xodimlarga ish va o’qishni birga olib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi shartligi belgilangan.

D.Sh.ga nisbatan qonun-qoidalarga xilof ravishda Qoraqalpog’iston Respublikasi “Toza hudud” MUKning 2024-yil 6-fevraldagagi majlis bayonnomasiga asosan, korxona rahbarining 2024-yil 8-fevraldagagi buyrug’i bilan “hayfsan” intizomiy jazo chorasi qo’llanilgan. Lekin xodim bu buyruq bilan 2024-yil 12-fevral kuni, ya’ni oradan 4 ish kuni o’tgandan so’ng tanishtirilgan.

Mehnat kodeksining 313-moddasiga muvofiq, xodimga intizomiy jazo chorasini qo’llash ish beruv-



chingin buyrug’i bilan rasmiylashtiriladi. Ish beruvchi xodimga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo’llash to’g’risidagi buyruq qabul qilingan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida, xodim ishda bo’lmagan vaqt hisobga olinmasdan, unga jazoning sabablari ko’rsatilgan holda imzo qo’ydirib, e’lon qilinadi.

O’ziga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo’llash haqidagi buyruq bilan tanishtirilmagan xodim intizomiy jazosi bo’lmagan deb hisoblanadi.

Xodimning o’ziga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo’llash to’g’risidagi buyruq bilan tanishishni rad etishi hozir bo’lgan guvohlar ko’rsatilgan holda dalolatnomaga yozuviga nikoh bekor bo’lganlikda rasmiylashtiriladi. Bunday holda xodim buyruq bilan tanishtirilgan deb hisoblanadi.

Yuqoridagilarga ko’ra, fuqaro D.Sh.ga nisbatan qo’llanilgan intizomiy jazo chorasini bekor qilish va o’qishda bo’lgan davr uchun ish haqi pulini to’lab berish bo’yicha Qoraqalpog’iston Respublikasi “Toza hudud” davlat unitar korxonasiga ijrosi majburiy bo’lgan taklif kiritildi.

Jamshid BEKIMBETOV,  
Qoraqalpog’iston Respublikasi Adliya vazirligi  
bosh maslahatchisi



## BOLANI MAKTABGA QABUL QILISH RAD ETILISHI MUMKINMI?



Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligiga fuqaro K.A. murojaat qilib, laboratoriya diagnozi bo'yicha mutaxassisligi ikkinchi mutaxassislik darajasiga tushirilganidan noroziligini bildirib, ish haqini qayta hisoblashda amaliy yordam so'rangan.



## MUTAXASSISLIK DARAJASI TIKLAB BERILDI

O'rganish davomida fuqaro K.A.ga Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasining 2022-yil 4-martdag'i buyrug'i bilan laboratoriya diagnozi mutaxassisligi bo'yicha birinchi mutaxassislik darajasi berilgan va shu mutaxassislik darajasi bo'yicha ish haqi hisoblanib kelingani ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, fuqaro K.A. 2023-yil 24-oktabr kuni o'z xohishiga ko'ra yuqori mutaxassislik darajasi sertifikatiga ega bo'lish uchun navbatdan tashqari mutaxassislik attestatsiyasida qatnashgan va mutaxassislik imtihoni natijasi bo'yicha Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining mutaxassisligini baholash markazining 2023-yil 30-oktabrdagi buyrug'i bilan unga laboratoriya diagnozi mutaxassisligi bo'yicha ikkinchi mutaxassislik darajasi berilgani aniqlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 18-sentabrdagi 477-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifalari berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti" 6-bandiga muvofiq o'z xohishiga ko'ra navbatdan tashqari attestatsiyada qatnashib, mutaxassislik darajasini orttigan tibbiyot va farmatsevtika xodimlariga oshirilgan mutaxassislik darajasi bo'yicha ish haqi to'lanishi, shuningdek navbatdan tashqari attestatsiyada qatnashib, attestatsiyadan o'ta olmagan tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining mutaxassislik darajasi esa tushirilmasligi belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagilarga ko'ra, fuqaro K.A.ning birinchi mutaxassislik darajasini tiklab berish va ish haqini mutaxassislik darajasiga muvofiq to'lash bo'yicha Adliya vazirligi tomonidan Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining mutaxassisligini baholash markaziga ijrosi majburiy bo'lgan taklif kiritildi va fuqaroga birinchi mutaxassislik darajasi tiklab berildi.

Asilbek MOLDAXMETOV,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi  
mas'ul xodimi

## QO'SHIMCHA MABLAK VA MA'NAVIY ZARAR UNDIRILDI



Bundan 5 yil muqaddam – 2019-yil 13-may kuni Rishton tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida tuman hokimining qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda tuman markazi qiyofasini tubdan o'zgartirish doirasida bir nechta tadbirdorlar hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning bino-inshootlari buzilib, yerlari davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olinishi belgilandi.

Ammo tadbirdor Matlubaxon Topiboldiyevaning tumandagi Roshidoniy ko'chasida joylashgan savdo do'konini yuqoridagi qaror ilovasiga kiritilmagan bo'lsa-da, buzib yuborildi. Oqibatda unga buzilgan bino-inshootlar uchun tegishli kompensatsiya ham to'lanmay qolgan. Shu bois, M. Topiboldiyeva tuman hokimligining harakatidan norozi bo'lib, Farg'ona tumanlararo ma'muriy sudiga murojaat qiladi. Natijada sudning 2022-yil 19-dekabrdagi hal qiluv qarori bilan Rishton tuman hokimligi mas'ul xodimlarining xatti-harakatlari qonunga xi洛 deb topilib, hokimlik zimmasiga Matlubaxon opaga tegishli savdo do'konini tuman hokimining yuqorida tilga olingan qarori bilan tasdiqlangan ro'yxatga kiritish majburiyati yuklatilgan. Qolaversa, adliya bo'limi tomonidan uning manfaatida kiritilgan da'vo arizasiga muvofiq fuqarolik ishlari bo'yicha Rishton tumanlararo suding tuman hokimligidan M. Topiboldiyeva foydasiga 191 million 128 ming 330 so'm undirish to'g'risida 2023-yil 22-fevraldagi hal qiluv qarori ham qabul qilingan.

Ikromjon ISAQOV,  
Rishton tuman adliya bo'limi boshlig'i

## MEHNAT STAJI QANDAY HISOBLANADI?



– Bugungi kunda mehnat ta'llili yangi Mehnat kodeksi bo'yicha hisob-kitob qilinyapti. Ya'ni, xodimlarga bir tashkilotdagi yoki tarmoqdagi ko'p yillik stajidan kelib chiqib, qo'shimcha mehnat ta'tili beriladi. Bu holatda xodimlarning bola parvarishlash ta'tili davri ham shunday stajga qo'shiladimi? Deylik, bir tashkilotda jami 18 yillik stajga ega xodim uchun umumiyl 3 yillik bola parvarishi ta'tili bilan staj hisoblanganda, xodim qancha muddatli mehnat ta'tili olish kerak bo'ladi?

– O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunining 37-moddasi "J" bandiga muvofiq, bola 3 yoshga to'lguncha bolani parvarishlash ta'tillarida bo'lish vaqt, lekin hammasini jamlaganda ko'pi bilan 6 yil muddati ish stajiga qo'shib beriladi. Yuqoridagi holatda 3 yillik mehnat stajiga qo'shiladi, biroq kelgusida yana bola parvarishi ta'tiliga chiqqanda jami muddat 6 yillik ish staji hisoblanishini e'tiborga olish zarur.

Masalan, A. ismli xodim 3 nafar farzandi uchun jami 9 yil bola parvarishlash ta'tilida bo'lgan bo'lsa, ushbu 9 yilidan faqat 6 yili mehnat stajiga qo'shiladi.

Demak, ko'rinish turibdiki, yuqoridagi holatda 18 yillik stajga ega xodimga yana 3 yillik mehnat staji qo'shiladi.

Nasiba RAHIMOVA,  
Sergeli tuman adliya bo'limi  
davat xizmatlari markazi bosh  
yuriskonsulti

## 6 TALQIN

**Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari ni bartaraf etish bugungi kunda butun dunyo mamlakatlari oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli, qariyb 30 yildan buyon global isish va uning natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan talofatlarning oldini olish maqsadida har yili Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi konferensiysi ("Conference of the Parties") tashkil etib kelinmoqda. Mazkur konferensiylar yakunida bir qator xalqaro hujjatlar qabul qilin-gan. 1997-yilda Yaponiyadagi COP 3 sammitida – Kioto protokoli (1999-yilda O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan), 2015-yilda Fransiyada o'tgan COP 21da Parиж bitimi (2017-yilda O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan) shular jumlasidandir.**

### BARQAROR AGROEKOTIZIMNI YARATISH – ZAMON TALABI



#### DUNYOVİY MUAMMO

BMT tomonidan tashkil etilayotgan konfrensiyada O'zbekiston ham doimiy ravishda faol ishtirok etib, bir qator tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda. Xususan, 2023-yilning 30-noyabr – 12-dekabr kunlari Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo'lib o'tgan Iqlim o'zgarishi konferensiyasida (COP 28) nutq so'zlagan Prezidentimiz quyidagi fikrlar ni ta'kidlagan edi: "Iqlim muammolari barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidiga aylanib ulgurdi. Bu xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda ayniqsa jiddiy sezilmoxda. Mintaqamizda havo haroratinining oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravar ko'pdir. Favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi yo'qoldi. Tuproq yemirilishi jarayonlari 30 million aholi turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kuchli chang va qum bo'ronlari odatiy holga aylandi. Ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslani-shi, bioxilma-xillik yo'qolishi, qishloq xo'jaligiga hosildorlik pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda. Bu global xavflar keng mintaqamizda xatarli nuqtaga yetib kelmoqda".

#### IQLIM O'ZGARISHLARI

Mintaqamizda vujudga kelayotgan iqlim muammolari davlat oldiga uning oqibatlarni yumshatish, qishloq xo'jaligida unga moslashuvchan tizimni yaratish zaruratinini kun tar比iga qo'yamoqda. 2024-yil 24-iyunda "Iqlim o'zgarishiga nisbatan barqaror agroekotizimni yaratish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavflarga moslashuvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga ko'ra, qishloq xo'jaligini iqlim o'zgarishiga moslashtirish va sohaning iqlima salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha milliy dastur tasdiqlandi. Endilikda qishloq xo'jaligini iqlim o'zgarishiga moslashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish va amaliyatga joriy qilish choralar ko'rildi. Qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtiruvchilarni favqulodda vaziyatlar ro'y berish xavfi (jumladan, haroratning anomal o'zgarishi, sel oqimlari va toshqinlari, do'l yog'ishi va qurg'oqchilik) hamda chigirtka va boshqa zararkunandalar bilan bog'liq favqu-lodda vaziyatlardan erta ogohlantirish tizimi ishlab chiqiladi.

Shuningdek, xalqaro moliya institutlarining kredit va grant mablag'lari, davlat budjeti mablag'lari hisobidan qishloq xo'jaligini iqlim o'zgarishiga moslashtirish loyihalarni amalga oshirish hamda xorijiy davlatlar bilan hamkorlik yo'iga qo'yiladi. Dehqon, fermer va agrokasterlar xo-dimlarining ekologik madaniyatini oshirish, agrar sohani iqlim o'zgarishiga moslashtirish bo'yicha bilim darajasi va ko'nikmalarini munta-zam oshirib borish choralar ko'rildi.

Qarorga asosan qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishi va uning oqibatlaridan keng jamoatchilikni xabardor qilish uchun ilmiy-ommabop, tahliliy materiallar tayyorlash, sohadagi tadqiqotlar natijalarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar orasida keng ommalashtirish choralar ko'rildi.

#### AGRAR SOHADA ZAMONGA MOSLASHUV

Bundan tashqari, qaror bilan belgilangan maqsadlarga erishish uchun xorijiy mablag'lari jaib etilishi belgilandi. Xususan, qishloq xo'jaligi sohasini iqlim o'zgarishiga moslashtirish hamda mahsulot yetishtiruvchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tadbirlari uchun BMTning Yashil iqlim jamg'armasi bilan hamkorlikda "O'zbekistonda iqlimga moslashuvchan qishloq xo'jaligi amaliyotlarini kengaytirish va agrar sohaning unga bo'lgan ta'sirini yumshatish" dasturi doirasida 200 million AQSh dollari miqdorida grant mablag'lari ajratiladi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqining 27 million yevro, Global ekologik jamg'armasining 10 million AQSh dollari miqdorida, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatni (GIZ)ning "Orolbo'yı mintaqasida ekologik barqarorlikka qaratilgan rivojlanish" loyihasining 12 million yevro miqdorida, Global ekologik jamg'arma hamda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq loyihalalar uchun 25 million AQSh dollari miqdorida grant mablag'lari ajratiladi.

Shuningdek, daraxtzorlardan iborat landshaftlarni tiklash va boshqarishga Jahon banki ishtirokida "O'zbekistonda barqaror o'rmon landshaftlarini tiklash" loyihasi doirasida 116,5 million AQSh dollari miqdorida imtiyozli qarz mablag'lari, 2024-yil uchun davlat budgeti parametrlarida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi xarat-jatlar uchun 100 milliard so'm hamda himoya o'rmonzorlarini barpo etish uchun 40 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi.

Xorijiy manbalar hisobidan ajratilayotgan mablag'lari sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, iqlim o'zgarishiga moslashuvchan tizimga o'tishga imkoniyat yaratadi, albatta.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda mazkur sohada olib borilayotgan islohotlar suv tanqisligi, sho'rланish va tuproq degradatsiyasining oldini olish, qishloq xo'jaligini iqlim o'zgarishiga moslashtirish hamda uning iqlimga bo'lgan salbiy ta'sirini yumshatishga xizmat qiladi.

Shuhrat FAYZIYEV,  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
professori

**Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan xalqimizni, oddiy odamlarni rozi qilish, ularni qiyayotgan muammolarga yechim topish tashabbusi Xalq qabulxonalarini uchun dasturilamal bo'layotir.**

#### MUROJAATLAR TAHLILI MUAMMOLARNI TEZKOR HAL ETISHNI TAQOZO ETADI



Eng muhimi, fuqarolarni kutib o'tirmsandan ularning huzuriga borish, xalq bilan yuzma-yuz muloqot qilish ko'la-mi kengaymoqda. Zero, murojaati yechim, so'zi qadr topgan inson hayotdan minnatdor bo'lib yashaydi.

Joriy yilning birinchi yarmida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Kosonsoy tumanidagi Xalq qabulxonasi hamda sayyor qabullar orqali 3 ming 877 ta murojaat kelib tushdi. Shundan 1 ming 548 tasi ijobji va 1 ming 687 tasi huquqiy tushuntirish berish orgali hal etildi.

Murojaatlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, aholini qiyayotgan eng dolzarb muammolar hamda eng ko'p takrorlanayotgan masalalar aliment undirish, muhujlarga bir martalik moddiy yordam ajratish, 18 yoshgacha bolalar nafaqasi, pensiya pullarini undirish, uy-joy bilan ta'minlash, yo'llarni ta'mirlash, tibbiy ko'rirkdan o'tkazish va tibbiy yordam ko'rsatish, mutaxassisligi bo'yicha ishga kirish (tiklash), kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish borasidadir. Ayni dolzarb muammo va masalalarni sektorlar hamda barcha darajadagi tashkilot rahbarlari ishtiroyida tezkor hal etishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, tumanning "Ozod" mahallasida yashovchi fuqaro S. Ermatova 2 oylik pensiya puli mas'ul xodimlarning xatosi tufayli Navoiy viloyatining Karmana tumanida yashovchi notanish fuqaroning plastik kartasiga tushirib berilganini ma'lum qilib, amaliy yordam so'ragan. Xalq qabulxonasi aralashuvli bilan ayolning pensiya puli karmanalik fuqarodan qaytarilib, plastik kartasiga tushirib berildi.

Tumanning "Yoshlik" mahallasida istiqomat qiluvchi U. Azizov esa "Kosonsoy faxriylar sanatoriysi"ga eltuvchi 2 kilometrlik yo'lni ta'mirlash masalasida tuman va viloyat hokimliklariga qilgan murojaatlari ijobji hal etilmaganidan norozi bo'lib, amaliy yordam so'ragan. Mazkur murojaat ham ijobji hal etilib, yo'ning ta'mirlanishi ta'minlandi.

Tumanning "Shirinbulloq" mahallasida yashovchi fuqaro N. Tursunboyevning esa mehnat huquqi buzilgan. U 2013-yilda tumandagi 42-umumta'lim maktabiga yetakchi lavozimiga ishga qabul qilingan. 2017-yilda esa kotiba vazifasiga, 2021-yilda 1 stavka kotiba, 0,5 stavka amaliyotchi psixolog lavozimiga o'tkazilib, tug'uruq ta'tili-chiqliq. Lekin 2024-yilda tug'uruq ta'tili tugab, ishga qaytmoqchi bo'lganida, maktab direktori uning talabini rad etgan. N. Tursunboyeva tuman Xalq qabulxonasi yordamida o'z ishiga tiklandi.

Bundan tashqari, murojaatlar tahlili jarayonida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlariga ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritilmoqda. Shuningdek, murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi va muddatlarini buzgan, qolaversa, murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari yuzasidan qabul qilin-gan qarorlar ijsorisini ta'minlamagan shaxslarni javobgarlikka tortish bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga takliflar ham yuborilmoqda.

Xususan, murojaatlarning kelib chiqishiga sabab bo'layotgan muammolarni o'rganish yuzasidan 48 ta ko'rsatma, 22 ta taqdimnoma, 21 ta taklif hamda Xalq depu-tatlari tuman Kengashiga 8 ta axborot kiritildi. Oqibatda 6 nafar mas'ul rahbar ma'muriy javobgarlikka tortildi, 14 nafar xodimga "hayfsan" intizomiy jazo chorasi qo'llanildi. 2 nafar xodim esa vazifasidan ozod etildi va 29 nafar mas'ul shaxs ogohlantirildi.

Muxtasar qilib aytganda, Xalq qabulxonasi xalq bilan hamnafas!

Tohiraxon MO'YDINOVA,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Kosonsoy  
tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri



# SIZNI UNUTMAYMIZ, SHUHRAT AKA!

Hamkasbimiz Shuhrat Suyarovning olamdan o'tganini eshitib, ko'nglim cho'kdi, ezildim. Axir, uch nafar farzandidan ikkisi universitetda, biri hali maktabda o'qiyotgandi. Shuhrat aka shularning rizqi uchun, ta'limi uchun yelib-yugurdi, tinmay mehnat qildi. Nima ham derdik. Taqdir ekan, akaning ortida qolgan oilasini, farzandlarini Allohning o'zi rizqlantirsins.

Shuhrat aka qanday odam edi? Shuhrat Suyarov jamoamizga gazetaning Sirdaryo viloyati bo'yicha muxbir bo'lib qo'shildi. Jamoada kimgadir aka, kimgadir uka bo'ldi, hammaning ko'ngliga yo'l topdi. Kasbiga mehr qo'ygan inson edi. Gazetaning deyarli har sonida Shuhrat Suyarovning goh tanqidiy, goh mulohazali, gohida mushohadaga chorlovchi maqlalari bosilardi. Tanqidiy maqlalari sabab Sirdaryo viloyatining ayrim hududlariga tungi chiroqlar o'rnatilgani, viloyat tibbiyot

sohasidagi ijobjiy o'zgarishlar, viloyat mas'ullarining fuqarolarni qabul qilishdagi sansalorliklari ga chek qo'yilgani kechagidek yodimizda. Shuhrat akada shunday odat bor edi-ki, to'ya borsa ham yonida bloknot va ruchkasi bo'lardi. E'tiborini tortgan voqeя yoki holatlarni qog'ozga tushirib qo'yar va tez orada shu bo'yicha maqola tayyorlab, gazeta yoki saytlarda yoritardi. Jurnalistga xos bo'lgan tezkorlik, xolislik, jonkuyarlik, bularning barchasi Shuhrat Suyarovda mujassam edi.

Bir necha yil oldin Shuhrat aka O'zbekiston Milliy axborot agentligiga ishga o'tdi. Garchi, boshqa joyda ishlayotgan bo'lsa-da, eski jamoa bilan ham aloqani uzmadidi. Ba'zida telefon qilib hol-ahvol so'rasa, ba'zida o'zi tahririyatga kelib, jamoa bilan suhbatlashib ketardi. Bu Shuhrat akaning odamiyigidan, oqibatli insonligidan dalolat edi.

Shuhrat aka bilan dunyodan

ko'z yumishidan ikki kun oldin telefonda gaplashgandim. Hech qachon telefondagi suhbatimiz bunchalik cho'zilmagandi. Aka dardini kulib yengayotganini ich-ichimdan his qildim. Ko'ngli to'lib, siniq ovozda shunday degan edi:

- Odam gohida kasal ham bo'lib turishi kerak ekan-da. Qarindosh-urug'im ko'pligini dard chekib bildim. Hafta, o'n kundan buyon uyim mehmon bilan to'la. Hamkasblarning ham boriga shukr, biri ketsa, biri keladi. Ayniqsa, Abdusaid aka (Abdusaid Ko'chimov) jamoa bilan kelib ketgandan so'ng jurnalist bo'lganimdan, shunday inson bilan bir safda mehnat qilayotganimdan faxrlandim...

Shuhrat akani toliqtirib qo'ymany degan maqsadda, gapini bo'lib, aka, shu hafta oxirlarida oldingizga bir o'taman, gurunglashamiz, dedim.

- Jigar, keling. Albatta, qoladi-

gan bo'lib keling!

Ko'zimga yosh keldi. Shuhrat akaga yana nimalarnidir gapirib bermoqchi edim, kuchim yetmadi. Ko'zimdag'i yosh gapirishga imkon bermadi.

Shundan so'ng oradan bor-yo'g'i ikki kun o'tdi. Telefonim jiringlab qoldi. Qarasam, Shuhrat akadan qo'ng'iroq bo'layotgan ekan. Telefonni olib, labbay, Shuhrat aka, desam, boshqa odamning ovozi keldi:

- Assalomu alaykum. Men Shuhrat akaning o'g'liman...

Eh, Shuhrat aka! O'sha kuni telefon orqali gaplashganimizda gapingizni bo'lib, nega suhbatimizni tugatib qo'ydim-a? Siz hali uzoq gaplashmoqchi edingiz, yo hammasini sezganmidingiz?

Biz sizni unutmavmiz, Shuhrat aka! Farzandlaringiz, shogirdlarining hali uzoq yillar siz bilan faxrlanib yurishiga ishonchim komil.

**Yorbek ISKANDAROV,**  
**"Inson va qonun" muxbiri**

Aholi o'rtasida huquqiy bilim va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ'ibot tadbirlari qonunbuzilish holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Ayniqsa, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik, jinoyat va huquqbazarliklar profilaktikasini olib borishda muhim o'rinn tutadi.

## JINOYATGA JAZO MUQARRAR

Avvalo, hamyurtlarimiz, ayniqsa, yoshlar sodir etilgani uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda utilgan g'ayrihuquqiy qilmish huquqbazarlik ekanini teran anglab olishlari lozim. Huquqbazarliklar profilaktikasi huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbazarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablar, ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbazarliklar profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi hisoblanadi.



Profilaktika suhbat, rasmiy ogohlantirish, huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablar va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to'g'risida xabardor qilish, ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish, profilaktik hisobga olish, majburiy davolanishga yuborish, ma'muriy nazorat kabi chora-tadbirlar huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi hisoblanadi. Profilaktika suhbat shaxsni jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariiga rioya etishga undash, g'ayriijtimoiy xulq-atvorning ijtimoiy hamda huquqiy oqibatlarini, huquqbazarlik sodir etganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikni tushuntirishdan iborat.

Surunkali alkogolizm, giyohvandlikka chalilangan shaxs tomonidan jamoat tartibi, boshqa shaxslarning huquqlari buzilgan yoxud u aholining xavfsizligi, sog'lig'i va jamiyatning axloqiga tahdid solgan taqdirda ichki ishlar organlari uni majburiy davolanishga yuborish choralarini ko'radi. Bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirib qolgan shaxslar uchun sodir etgan qilmishiga qonuniy jazo muqarrar ekanini ta'kidlash joiz.

**Munisa MURODULLAYEVA,**  
**Sergeli tuman ichki ishlar organlari**  
**faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi**  
**tergovchisi, mayor**

### E'LON

"Toshkent shahar dori-darmon" Ajning Kasaba uyushmasi qo'mitasiga tegishli bo'lgan, dumaloq shakldagi, atrofida lotin yozuvida "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash va Farmatsevtika Kasaba uyushmasi Toshkent shahar aksiyadorlik jamiyat", ichki qismida esa "Kasaba uyushmasi qo'mitas" yozuviga ega bo'lgan ko'k siyohli muhr yo'qolgani sababli haqiqiy emas deb topilsin.

## 8 ADLIYA FAXRIYLARI

### Saodat opa saboglari




Saodat Shukraliyeva Bekobod tumanida tug'ilib-o'sgan. 1973-yil Andijon davlat chet tillar institutini tamomlab, mehnat faoliyatini o'zi tug'ilib-o'sgan tumandagi 2-maktabda o'qituvchilidan boshlagan. Fransuz tili o'qituvchisi ikki yildan so'ng tuman yoshlari qo'mitasi 3-kotibi, keyinroq Toshkent viloyat yoshlari qo'mitasi o'quvchilar va studentlar bo'limi nazoratchisi sifatida yoshlarning haqiqiy sardoriga aylandi. Yoshlari tashkilotining tashabbuslariغا, yoshlarning orzulariga hamnafas bo'ldi. Saksoninchi yillarning bosidan o'talariga qadar tuman xalq maorifi (ta'limi) bo'limi nazoratchisi vazifasida xizmat qildi. So'ngra uning zimmasiga yanada mas'uliyatlari vazifa – tuman bolalar uyiga direktoriq vazifasi yuklandi. Bolalarning beg'ubor dunyosini kashf etdi, ularning nafaqat muammolariga yelka tutdi, balki qalbiga quloq soldi...

Oradan biroz vaqt o'tib, tuman fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limi mudirligiga tayinlandi. Shundan so'ng Saodat opaning mehnat faoliyatida yangi sahifa ochildi. Fuqarolarning nikohini qayd etish, oila ostonasida turgan yigit-qizlarga tavsiyalar va huquqiy maslahatlar berish, oila quvonchiga-quvonch qo'shgan farzandlar dunyoga kelganda tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalarni qayd etishdek baxtli voqealar ni tarixga muhrlashdek missiyalar bilan bir qatorda zamondoshlarining qayg'uli damlariga ham sherik bo'ldi. Ota-onasi, bolasi yoki yaqinlari vafot etganda beriladigan guvohnomalarini qayd etar ekan, ularning ko'ngliga taskin beradigan so'z aytishni insoniylik burchi deb bildi.

32 yillik mehnat faoliyatining 20 yilini "ZAGS" idorasiga bag'ishlagan Saodat Abduqodirovna qayerda, qaysi vazifada ishlamasin, odamlar orasida, xalq xizmatida bo'ldi. Tabarruk 75 yoshga to'lgan Saodat opaga umringiz uzoq, xonadoningiz tinch va farog'atli bo'lsin, deymiz.



*Hayot insonga berilgan eng qimmatli tuhfa. Bu tuhfani qadrash, unga munosib bo'lish uchun inson yuksak cho'qqlarni ko'zlab yashaydi, o'qib, izlanadi, yelib-yuguradi. Umr karvonni esa mas'uliyatlari va mashaqqallari yo'llardan, dovonlardan o'tadi. Bu yo'llarda kimdir topadi, kimdir yo'qotadi. Kimdir sinovlardan o'tishga imkon, kuch topadi, kimdir esa qoqiladi, yigiladi. Xillas, hayotning sharti oddiy – to'g'ri yashashdan, sabog'i jiddiy – halol mehnat qilishdan iborat. "Hikmat izlaganga hikmatdир duno..." degan shoiring so'zlarida hikmat bor. Bugungi qahramonlarimiz ham millatidan, tug'ilgan yurtidan, kasbi-koridan, lavozimidan qat'i nazar elga qilgan xizmatli bilan qadr, hayotdan esa hikmat topgan, ehtiromga loyiq ayollardir.*



### ELDA E'ZOZ TOPGAN ayollar

Peshonasiga  
bosh hisobchilik  
"bitilgan"  
Svetlana  
Dmitriyevna



Svetlana Magadeyeva Turkmaniston Respublikasining Chorjo'y viloyatida tavallud topgan. Katta va ahil oilada, 8 nafar aka-uka, opa-singillar mehr ardog'ida voyaga yetdi. U millati boshqa bo'lsa ham, O'zbekistonni o'z vatani deb bildi, taqdirini O'zbekiston bilan bog'ladı. 1972-yil Samarqand moliya texnikumini sug'urta-moliyachisi mutaxassisligi bo'yicha tamomlab, ilk mehnat faoliyatini Urganch shahar sug'urta idorasining iqtisodchisi vazifasidan boshlagan. Tez orada kasb sirlarini o'rjanib, 1974-1989-yillar, ya'ni o'n besh yil mobaynida xuddi shu sug'urta idorasining bosh hisobchisi lavozimida samarali xizmat qildi. Svetlana Dmitriyevanining mehnat faoli-

yatiga nazar tashlagan kishi "Uning taqdiriga faqat bosh hisobchilik yozilgan ekan-da" deb o'ylashi tabiiy. Chunki S. Magadeyeva qator yillar Xorazm viloyat madaniyat xodimlari kasaba uyushmasining bosh hisobchisi, so'ngra "Xorazmturist"ning bosh hisobchisi bo'lib faoliyat yuritdi. Qahramonimiz 1992-2009-yillar mobaynida Xorazm viloyat adliya boshqarmasi bosh hisobchisi va 2009-yildan boshlab bir necha yil Toshkent viloyat adliya boshqarmasining bosh hisobchisi lavozimida ishladi.

Ma'lumki, moliya, iqtisod sohasida raqamlar bilan tillashish kerak. Raqamlarga e'tiborsizlik qonunbuzarliklarni keltirib chiqarishi, salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini barchamiz yaxshi bilamiz. Svetlana Dmitriyevna shuning uchun ham har bir raqamga e'tiborli, o'z ishiga puxta hisobchi ekanligini butun mehnat faoliyatini davomida isbotladi. Davlat mulkini asrashga, davlatning har bir tiyinini hisob-kitob qilishga, behuda sarflamaslikka o'rgangani uchun shu sohada, aynan bosh hisobchi lavozimida 40 yildan ortiq vaqt halol mehnat qildi, kasbiga, nomiga dog' tushirmadi.

Qutlug' yoshingiz muborak bo'lsin, Svetlana Dmitriyevna!

Laborant, xat  
tashuvchi, kotiba,  
katta notarius –  
Ma'mura opa

Ma'mura Niyazova asli poytaxtlik. 1954-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. 1977-yil Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini tugatgan. Universitetning kechki bo'limida tahsil olish bilan birga 1971-yildan Toshkent sud tibbiy ekspertiza byurosining laboranti bo'lib ishladi. Bir muddat Toshkent viloyat Kalinin tuman sudining xat tashuvchisi, shu sud majlisini kotibasi bo'lib faoliyat yuritdi. Toshkent shahar ijtimoiy ta'minot markazining kotibasi, nazoratchisi, komsomol ijroiya qo'mitasida, kasb-hunar ishlab chiqarish o'quv yurtining sektor mudiri, respublika ma'naviyat va madaniyat targ'iboti markazining kadrlari bo'limi boshlig'i lavozimlarida faoliyat yuritdi. 1994-yildan esa Sobir Rahimov tumani 1-sonli davlat notarial idorasi notariusi, 1995-1996-yillarda Yakkasaroy tumanidagi 1-sonli davlat notarial idorasi notariusi, Shayxontohur tumani 2-sonli davlat notarial idorasi katta notariusi vazifalarida xalqning xizmatida bo'ldi.

Ma'mura Nabiyeva huquqshunoslikning barcha sirlarini qunt bilan egallab, maslahat so'rab kelgan fuqarolardan huquqiy yordamini ayamadi. Kimdir mol-mulk borasidagi nizolarga barham berish, kimdir meros mojarosini hal qilish uchun notarial idoraga kelganda, har bir masalaning huquqiy yechimini topishga, muammoni ijobiy hal qilishga harakat qildi.

Ba'zan huzuriga soxta hujjatlarni ko'tarib, g'ayriqonuniy yo'llar bilan ish bitirmoqchi bo'lgan hamshaharlarini bu qilmishining huquqiy oqibatlaridan xabardor qildi. Barcha muammoning qonuni yechimi borligini tushuntirdi. Qonunni chetlab o'tishlariga yo'l qo'ymadи.

Ma'mura opa uchun hayotning har bir lahzasi go'zal. Oila va yaqinlar davrasida baxtiyor, hayotning har bir kunidan katta xulosalar chiqarishga o'rgangan qahramonimiz bosib o'tgan yo'llarning va pillapoyalarning o'z nomi, o'z bahosi, o'z xulosasi bor. Barcha yo'llar mashaqqatli va mas'uliyatlari mehnat bilan chambarchas bog'liq. Mehnatning rohatini ko'rish esa faxrli va yoqimli...

Tabarruk yoshingiz qutlug' bo'lsin, Ma'mura opa! Umringizga umr qo'shilsin.

**Marusa HOSILOVA,**  
**"Inson va qonun" muxbirini**